



Tashkent State University of Economics

# JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN  
2181-1016

## TRANSPORT VA KOMMUNAL SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINING TAHLILI

**Feruz O'lokkulova,**

PhD, Termiz davlat universiteti doktoranti  
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: o'lokkulovaf@tersu.uz  
ORCID: 0009-0001-4427-1879

## ANALYSIS OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECTS IN THE TRANSPORT AND PUBLIC UTILITIES SECTORS OF UZBEKISTAN

**Feruz O'lokkulova,**

PhD, doctoral student at Termez state university  
Tashkent, Uzbekistan. E-mail: o'lokkulovaf@tersu.uz  
ORCID: 0009-0001-4427-1879

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda transport va kommunal xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining rivojlanish tendensiyalari, investitsiya tarkibi, tarmoqlar va hududlar kesimidagi taqsimlanishi hamda ularning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda transport va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilishning iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va aholi farovonligini oshirishdagi o'rni ilmiy asoslangan. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) yondashuvlardan foydalangan holda DXSh loyihalarida risklarni boshqarish, investitsion qarorlar qabul qilish va loyiha samaradorligini oshirishga oid zamonaviy ilmiy qarashlar tahlil qilingan.

Maqolada 2020-2026-yillar davomida O'zbekistonda DXSh loyihalari soni va investitsiya hajmining o'sish

dinamikasi, tarmoqlar kesimida energetika, transport va kommunal xizmatlar sohasidagi ustuvor ulushi statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Transport infratuzilmasida avtomobil yo'llari va aeroportlarni modernizatsiya qilish, kommunal xizmatlar sohasida esa issiqlik, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik qatorlar, grafik va tarkibiy tahlil, umumlashtirish hamda iqtisodiy-mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanilgan.

**Abstract:** This article analyzes the development trends, investment structure, sectoral and regional distribution, and economic significance of Public-Private Partnership (PPP) projects implemented in the transport and public utilities sectors of Uzbekistan. The study provides a scientific assessment of the role of transport and municipal infrastructure modernization in promoting economic growth, investment activity, and public welfare. Institutional reforms, the legal framework governing PPP implementation, and international best

*practices have been examined. Furthermore, contemporary approaches to improving project efficiency and managing investment risks through artificial intelligence, blockchain technologies, and data-driven decision-making models are comprehensively reviewed.*

*The research evaluates the dynamics of PPP projects and investment volumes in Uzbekistan during 2020–2026, highlighting the dominant share of the energy, transport, and public utilities sectors based on statistical evidence. Particular attention is paid to major investment projects aimed at modernizing highways and airports in the transport sector, as well as heating, water supply, and wastewater infrastructure in the public utilities sector. The study employs comparative analysis, statistical methods, time-series analysis, structural and graphical analysis, synthesis, and economic-logical approaches.*

**Kalit soʻzlar:** *davlat-xususiy sheriklik, transport infratuzilmasi, kommunal xizmatlar, investitsiya loyihalari, infratuzilma, xususiy investitsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, risklarni boshqarish, logistika, energiya samaradorligi, raqamli texnologiyalar.*

**Key words:** *Public-private partnership (PPP), transport infrastructure, public utilities, investment projects, infrastructure development, private investment, economic efficiency, risk management, logistics, energy efficiency, digital technologies,*

**Kirish.** Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biri transport va kommunal infratuzilma barqarorligi hamda uzluksiz faoliyatini taʼminlash hisoblanadi. Chunki milliy ishlab chiqarishni tashkil etish, qoʻshilgan qiymat yaratish, hududlararo iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash va aholining munosib

turmush darajasini taʼminlashda mazkur ikki tarmoq tayanch infratuzilmaviy omil sifatida namoyon boʻladi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda transport tizimining rivojlanganligi ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, logistika samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilsa, kommunal xizmatlar infratuzilmasining takomillashuvi energiya va resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni taʼminlash hamda aholi va tadbirkorlik subyektlariga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun transport va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, ularga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda ilgʻor boshqaruv mexanizmlarini joriy etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda ham mazkur yoʻnalishda keng koʻlamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida"gi Qonuni [1], "Oʻzbekiston-2030" strategiyasi[2] hamda 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son "Oʻzbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori[3] asosida transport va kommunal infratuzilmaga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish, yirik DXSh loyihalarini amalga oshirish va ushbu tarmoqlarning investitsion jozibadorligini oshirish boʻyicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Albatta, mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi transport va kommunal sohalarida bajarilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining miqyosi, investitsiya tarkibi hamda iqtisodiy samaradorligini atroflicha tahlil qilishni, mavjud tendensiyalarni ilmiy baholash va ularni yanada takomillashtirish boʻyicha asoslangan takliflar ishlab

chiqishni taqozo etadi. Shu jihatdan transport va kommunal xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarining qiymati, tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi va investitsiya ustuvorliklarini kompleks tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Material va metod.** Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining transport va kommunal infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishdagi o'rni, xususiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi hamda infratuzilmaviy loyihalarining iqtisodiy natijalarini baholash masalalari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda DXSh loyihalarining investitsion jozibadorligi, risklarni taqsimlash mexanizmlari, infratuzilmaviy rivojlanishga ta'siri hamda davlat xarajatlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Mualliflar tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarida risklarni baholashda sun'iy intellekt va ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) usullardan foydalanish istiqbollari tadqiq etilgan bo'lib, raqamli texnologiyalarni risklarni boshqarish tizimiga integratsiya qilish qaror qabul qilish sifatini yaxshilashi, loyiha muvaffaqiyatini oshirishi hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [4]. Solak Turkiyada avtomobil yo'llari bo'yicha amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini institutsional va siyosiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Muallifning ta'kidlashicha, iqtisodiy asoslanmagan transport oqimi prognozlari, shartnomalarning yetarli darajada shaffof emasligi hamda davlat kafolatlarining haddan tashqari yuqoriligi risklarning asosan davlat zimmasiga yuklanishiga olib kelgan. Natijada ayrim loyihalarda infratuzilmadan

foydalanish darajasi pasaygan, davlat budjeti yuki ortgan va investitsiya samaradorligi kamayganligini alohida qayd etib o'tgan [5]. Mualliflarning ta'kidlashicha, davlat va xususiy sektor hamkorligi blokcheyn infratuzilmasining xavfsizligi, shaffofligi va o'zaro moslashuvchanligini ta'minlash bilan bir qatorda, innovatsion yechimlarni tezkor joriy etish va raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish imkonini beradi. Bunday hamkorlik risklarni kamaytirish, tranzaksiya samaradorligini oshirish hamda raqamli moliyaviy tizimlarning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatida e'tirof etiladi [6]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellektga asoslangan GAN (Generative Adversarial Network) modeli davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tanlash va baholashda iqtisodiy, texnik, institutsional hamda ekologik mezonlarni kompleks hisobga olish imkonini beradi. Mualliflar bunday qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi investitsion risklarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda davlat-xususiy sheriklik samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydilar [7].

Kuznetsovning tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy modellari jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan geoiqtisodiy transformatsiyalar va mintaqaviy integratsiya jarayonlari ta'sirida shakllanayotgani asoslab berilgan. Olimning fikricha, DXSh bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish investitsion faollikni oshirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini barqaror rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning global investitsion jarayonlarga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi [8]. Yeremina va Rodina davlat-xususiy sheriklik

cheklangan budget resurslari sharoitida ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirishning samarali instrumenti sifatida baholaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, DXShdan foydalanish davlatning investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hamda ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi [9]. G.Karlibayeva tomonidan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiya ishida, oliy ta'lim muassasalarida davlat-xususiy sherikchilik asosida endowment fondlarini tashkil qilish va rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari o'rganilgan va ushbu jarayonda DXShni amalga oshirish tartibi atroflicha ochib berilgan [10]. T.Karlimuratov tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqarish va ta'lim sifatini oshirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmi muammolarni pedagogik monitoring qilish va tashxislash asosida pedagogik korreksiyalash asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan [11].

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy xulosalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmining samaradorligi, eng avvalo, loyihalarni ilmiy asoslangan holda tanlash, investitsiya risklarini to'g'ri taqsimlash, shaffof boshqaruv tizimini joriy etish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasiga bevosita

bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida transport va kommunal xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan yirik DXSh loyihalarining investitsiya hajmi, ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar.** Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari sonining yillar kesimidagi o'zgarishini tahlil qilish mamlakatda xususiy sektorni infratuzilmaviy va ijtimoiy sohalarga jalb etish darajasini baholash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkich DXSh mexanizmlarining institutsional rivojlanishi, investitsion muhitning jozibadorligi hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalarini aks ettiruvchi muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2026-yillar davomida O'zbekistonda DXSh loyihalari soni barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 2020-yilda 568 tani tashkil etgan loyihalar soni 2021-yilda 682 taga, 2022-yilda 801 taga, 2023-yilda 968 taga hamda 2024-yilda 1 148 taga yetgan. 2026-yil yakunlariga kelib esa esa mazkur ko'rsatkich 1360 taga yetishi prognoz qilinmoqda. Natijada tahlil qilinayotgan davr mobaynida loyihalar soni 792 taga yoki 2,4 barobarga oshishi, yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) esa 16,2 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Shuningdek, DXSh loyihalarining umumiy qiymati ham yuqori sur'atlarda o'sib borgan. Xususan, 2020-yilda 46,7 trln so'mni tashkil etgan loyiha portfeli 2021-yilda 62,3 trln so'm, 2022-yilda 87,6 trln so'm, 2023-yilda 116,5 trln so'm va 2024-yilda 152,8 trln so'mga yetgan. 2025–2026-yillarda esa ushbu ko'rsatkichning mos ravishda 188,6 trln so'm va 221,4 trln so'mga yetishi prognoz

qilinmoqda. Natijada olti yil davomida DXSh loyihalarining umumiy qiymati 174,7 trln so'mga oshib, 4,7 barobar ko'payishi kutilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining tarmoqlar kesimidagi qiymat tarkibini tahlil qilish investitsiya resurslarining iqtisodiyotning qaysi ustuvor yo'nalishlariga yo'naltirilayotganini aniqlash, tarmoqlar bo'yicha kapital sig'imi darajasini baholash hamda davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil xususiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini va DXSh loyihalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanish xususiyatlarini

baholash imkonini beradi. 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga DXSh loyihalarining umumiy qiymati 188,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, uning asosiy qismi energetika va transport tarmoqlariga to'g'ri kelmoqda. Xususan, energetika sohasi jami loyiha qiymatining 32 foizini egallab, eng yuqori ulushni tashkil etadi. Bu holat mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda elektr uzatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha yirik investitsiya loyiholari amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.



1-rasm. DXSh loyihalarini soni (dona) va umumiy qiymati dinamikasi (trln.so'm)<sup>1</sup>


<sup>1</sup> [https://gov.uz/ru/pages/Davlat\\_xususiy\\_sheriklik\\_loyihalarini](https://gov.uz/ru/pages/Davlat_xususiy_sheriklik_loyihalarini) - asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ikkinchi yirik ulush transport sohasi hissasiga to'g'ri kelib, uning ulushi 20 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich avtomobil va temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, logistika markazlarini barpo etish hamda transport xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan loyihalarning investitsion hajmi yuqoriligini ko'rsatadi. Kommunal infratuzilma loyihalari 15 foiz ulush bilan uchinchi o'rinni egallab, ichimlik suvi, oqova suv tizimlari va boshqa muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyatini ifodalaydi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasi jami loyiha qiymatining 12 foizini, ta'lim sohasi

esa 10 foizini tashkil etmoqda. Bu esa ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy tibbiyot va ta'lim muassasalarini tashkil etishda DXSh mexanizmlaridan tobora keng foydalanilayotganini ko'rsatadi. Sanoat loyihalari 7 foiz, boshqa tarmoqlar esa 4 foiz ulushni egallab, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiyotning boshqa yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Hududlar kesimida kichik va o'rta hajmdagi eng ko'p loyihalar Farg'ona, Andijon, Samarqand viloyatlarida amalga oshirilayotgan bo'lsa, eng yirik loyihalar Buxoro viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Samarqand viloyatiga qissasiga to'g'ri keladi.

## DXSh LOYIHALARI: TARMOQLAR KESIMIDA QIYMATI VA MAKROIQTISODIY SAMARALARI

2026 YIL 1 YANVAR HOLATIGA




2-rasm. Tarmoqlar kesimida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari<sup>2</sup>

<sup>2</sup>[https://gov.uz/ru/pages/Davlat\\_xususiy\\_sheriklik\\_loyihalari](https://gov.uz/ru/pages/Davlat_xususiy_sheriklik_loyihalari) - asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlillar ko'rsatishicha 2021-2023 yillarda Buxoro viloyatida muqobil energiya resurslarini ishlab chiqarish borasida tarixiy va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Saudiya Arabistonining Acwa Power kompaniyasi Peshku va G'ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 MVt bo'lgan ikkita shamol elektr stansiyalari qurilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmogda. O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari kompaniyasi bilan loyihani amalga oshirish uchun 25 yillik shartnoma imzolangan bo'lib, ushbu shamol elektr stansiyalarini moliyalashtirish xalqaro moliya institutlari ko'magida amalga oshiriladi. Loyiha bo'yicha dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 1 GVt (1000 MVt) quvvatga ega stansiyalar xissasiga respublikada ishlab chiqarilayotgan 6,3 foiz elektr energiyasiga to'g'ri keladi ushbu stansiyalar yiliga 3,6 milliard KVt elektr energiyasi ishlab chiqaradi va buning natijasida (yiliga) 1,1 mlrd kub tabiiy gazni iste'mol qilish iqtisod qilinadi. Shu bilan birga, shamol elektr stansiyalari 1 million xonadon xo'jaligini elektr energiyasi bilan ta'minlashi alohida qayd etilgan. Transport infratuzilmasi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi eng faol qo'llanilayotgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalarining qiymatini tahlil qilish transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari, investitsiya resurslarining taqsimlanishi hamda xususiy kapital ishtirokining iqtisodiy ahamiyatini baholash imkonini beradi. Ayniqsa, avtomobil yo'llari va aeroport

infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim o'rin tutadi.

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019-2024-yillarda transport sohasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan DXSh loyihalari orasida eng yirik investitsiya Toshkent aeroportlarini modernizatsiya qilish loyihasi yo'naltirilgan bo'lib, uning qiymati 3814,0 mln. AQSh dollari tashkil etadi. Mazkur loyiha xalqaro aviatsiya infratuzilmasini zamonaviy talablarga moslashtirish, yo'lovchi va yuk tashish quvvatlarini oshirish hamda O'zbekistonning mintaqaviy aviatsiya markazi sifatidagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchi yirik loyiha Toshkent-Andijon avtomobil yo'lini qurish va modernizatsiya qilish bo'lib, uning qiymati 2831,0 mln AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu loyiha Farg'ona vodiysini respublikaning markaziy hududlari bilan bog'lovchi strategik transport yo'lagini rivojlantirish, yuk va yo'lovchi tashish vaqtini qisqartirish hamda logistika samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, Toshkent-Samarqand avtomobil yo'li loyihasi qiymati 1370,0 mln. AQSh dollari, Samarqand-Taxtaqoracha avtomobil yo'li va tunneli loyihasi esa 484,0 mln AQSh dollarini tashkil etib, avtomobil transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.




**3-rasm. 2019-2024-yillarda transport sohasida amalga oshirilayotgan va kutilayotgan DXSh loyihalari qiymati<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>[https://gov.uz/ru/pages/Davlat\\_xususiy\\_sheriklik\\_loyihalari](https://gov.uz/ru/pages/Davlat_xususiy_sheriklik_loyihalari) - asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Aeroport infratuzilmasi bo'yicha boshqa loyihalar ham muhim o'rin egallaydi. Xususan, Buxoro va Urganch aeroportlarini modernizatsiya qilish loyihasi 200,0 mln. AQSh dollar, Samarqand aeroportini modernizatsiya qilish loyihasi 93,0 mln. AQSh dollari miqdorida baholangan. Shu bilan birga, Toshkent avtomobil to'xtash joylari tizimini DXSh asosida rivojlantirish loyihasi qiymati 0,08 mln. AQSh dollarini tashkil etib, nisbatan kichik investitsiya hajmiga ega bo'lsa-da, shahar transportini boshqarish samaradorligini oshirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish nuqtayi nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kommunal xizmatlar sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini amalga oshirish aholini sifatli kommunal

xizmatlar bilan ta'minlash, eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda energiya samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining qiymatini tahlil qilish xususiy kapitalning kommunal infratuzilmaga jalb etilish darajasi, investitsiya ustuvorliklari hamda sohaning rivojlanish istiqbollari baholash imkonini beradi. 4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019-2024-yillarda kommunal xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan DXSh loyihalari orasida eng yirik investitsiya Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini Veolia kompaniyasi ishtirokida modernizatsiya qilish loyihasi to'g'ri kelib, uning qiymati 1540,0 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



4-rasm. 2019-2024 yillarda kommunal sohada amalga oshirilayotgan va kutilayotgan DXSh loyihalari qiymati<sup>4</sup>

<sup>4</sup>[https://gov.uz/ru/pages/Davlat\\_xususiy\\_sheriklik\\_loyihalari](https://gov.uz/ru/pages/Davlat_xususiy_sheriklik_loyihalari) - asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur loyiha markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish, xizmatlar sifati va uzluksizligini oshirish orqali poytaxt kommunal infratuzilmasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Keyingi yirik loyiha Buxoro shahri issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish bo'lib, uning qiymati 300,0 mln. AQSh dollari tashkil etadi. Shuningdek, Toshkent oqova suvlarini tozalash tizimini modernizatsiya qilish loyihasi 234,0 mln AQSh dollari, Namangan kanalizatsiya tizimini Metito kompaniyasi ishtirokida rivojlantirish loyihasi esa 90,0 mln AQSh dollari miqdorida baholangan. Ushbu loyihalar suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda kommunal xizmatlar sifati yaxshilashga qaratilgan. Bundan tashqari, Bo'ston tumani isitish tizimini modernizatsiya qilish loyihasi qiymati 0,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, nisbatan kichik investitsiya hajmiga ega bo'lsa-da, hududiy kommunal infratuzilmani bosqichma-bosqich yangilash va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Munozara.** Ta'kidlash kerakki, DXSh loyihalar qiymatining 67 foizi energetika, transport va kommunal infratuzilma tarmoqlarida jamlanganligini ko'rsatadi. Bu esa davlat investitsiya siyosatida iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblangan infratuzilmaviy tarmoqlarni ustuvor rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarda ham DXSh mexanizmlarining kengayib borayotgani xususiy kapitalning ijtimoiy sohalarga jalb etilishini oshirib, davlat budjeti yukini kamaytirish va aholiga

ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalari transport sohasidagi DXSh loyihalarida investitsiyalar asosan yirik avtomobil yo'llari va aeroport infratuzilmasini modernizatsiya qilish yo'nalishlarida jamlanganligini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatning tranzit-logistika salohiyatini oshirish, xalqaro transport koridorlariga integratsiyalashuvni jadallashtirish hamda xususiy investitsiyalarni strategik infratuzilmaviy loyihalarga keng jalb etish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar transport sohasi O'zbekistonda DXSh mexanizmini qo'llashning eng istiqbolli va kapital sig'imi yuqori yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari kommunal xizmatlar sohasidagi DXSh loyihalarida investitsiyalarning asosiy qismi issiqlik ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish yo'nalishiga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, eskirgan kommunal infratuzilmani yangilash hamda aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar sifati va ishonchligini yaxshilash davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xalqaro xususiy operatorlar, xususan Veolia va Metito kabi kompaniyalar ishtirokining kengayib borayotgani kommunal xizmatlar sohasiga ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va uzoq muddatli xususiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirayotganini ko'rsatadi.

**Xulosa.** DXSh davlat tashkiloti (organlari) va bir yoki bir nechta xususiy yuridik shaxslar o'rtasidagi uzoq muddatli kelishuv shartnomasi bo'lib, unga ko'ra har

bir tomonning resurslari, imkoniyatlari va asosiy vakolatlari keng jamoatchilik manfaatlari yo'lida obyektни loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish maqsadida birlashtiriladi. DXSh hukumatlar uchun xususiy sektorning amaliy-texnik bilimlari va tajribasidan foydalangan holda moliyalashtirish orqali o'z majburiyatlarini yengillashtirish vositasidir. An'anaviy davlat xaridlari bilan solishtirganda, DXSh xususiy sektor uchun ham yuqori manfaatli bo'lib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan rislar davlat sherigi bilan taqsimlansada pirovard natija, imtiyozlar yoki qo'shimcha imkoniyatlar nuqtai nazaridan foydaliroq ekanligini namoyon etadi.

O'zbekistonda DXSh munosabatlari 2019-yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun asosida tartibga solinadi. DXSh munosabatlari maxsus shartnomalar – konsessiyalar, investitsiya bitimlari, ofset shartnomalari va xizmat ko'rsatish shartnomalari orqali shakllantiriladi. DXShda hukumat, SPV/SPC (maxsus loyihalashtirish kompaniyasi), moliyaviy agentlar, qurilish va texnik xizmat ko'rsatuvchi firmalar hamda iste'molchilar asosiy ishtirokchilar sifatida qatnashadi. SPVlar DXSh loyihalarini moliyalashtirish, boshqarish va yuridik asosda amalga oshirish uchun alohida tashkil etiladi. O'zbekistonda DXShning rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: qonunchilik bazasining mustahkamligi; davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlash; moliyaviy rag'batlantirish va investorlar uchun kafolatlar; xususiy sektor salohiyati va malakasi; shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash; infratuzilma ehtiyojlari va moliyalashtirish mexanizmlari; halqaro tajriba va hamkorlik.

DXSh nafaqat davlat miqyosida balki jahon miqyosida ko'tarilayotgan masalalar va muammolarning ijobiy yechimi sifatida foydalaniladigan instrument hisoblanadi. Jumladan, BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz. Hususan, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish, salomatlik va farovonlik, gender tengligi, sifatli ta'lim, toza suv va sanitariya, sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma, shaharlar va aholi punktlarining barqaror rivojlanishi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, tinchlik, adolat va kuchli institutlarni tashkil etishda DXSh imkoniyatlaridan keng foydalanishning ilmiy-amaliy va huquqiy asoslarini mustahkamlab borish zarur. Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya singari iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning DXSh modellari davlat va xususiy sektor hamkorligining muhim namunasi hisoblanadi. Garchi ba'zi loyihalar muvaffaqiyatsiz bo'lgan bo'lsa-da, umumiy yo'nalish samarador va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi. PF2 modeli PFI bilan solishtirganda moliyaviy oshkoralikni oshirish, davlat ishtirokini kuchaytirish va loyiha boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun O‘RQ-537-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-son qarori.
4. Yixiao Jiang, Credit ratings, financial ratios, and equity risk: A decomposition analysis based on Moody’s, Standard & Poor’s and Fitch’s ratings, Finance Research Letters, Volume 46, Part B, 2022, 102512, ISSN 1544-6123.
5. Solak A.O. Rent-seeking in megaprojects: The case of Turkey’s public-private partnerships for roads // Utilities Policy. – 2025. – Vol. 96
6. Shah M.A., Raj N. Examining the role of blockchain and public-private partnerships in design and deployment of blockchain-enabled CBDC//Digital Business. - 2025. - Vol. 5. - No. 1.
7. Fandi G., Krepl V., Shaheen H., Müller Z., Kyncl J., Tlustý J. va boshq. Effective criteria in the public-private partnership in developing countries to apply the Sustainable Development Goals: GAN-based decision support system for the renewable electrical system, case study Syria // Heliyon. - 2023. - Vol. 9. - No. 11.
8. Кузнецов А.В. Трансформация мировой экономики и новые тенденции международного экономического сотрудничества // Институт мировой экономики и международных отношений. - 2023.
9. Еремина О.И., Родина Е.Е. Государственно-частное партнерство как инструмент финансирования социальной сферы в России // Вестник Алтайской академии экономики и права. - 2024. - №9.
10. Karlibayeva G.X. “Oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini moliyalashtirish va monitoringini amalga oshirish” mavzusida PhD dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2023 y.
11. Kalmuratov T.N. “Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish” mavzusida PhD dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2023 y.
12. International Debt Statistics - <https://www.worldbank.org/en/programs>